

MIRTEMIR LIRIKASINING O'ZIGA XOS LINGVISTIK JIHATLARI

Nigmatova Marjona

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 105- guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qalami o'tkir shoir, hassos, muhabbat, tabiat kuychisi va she'rlari tarkibida olam - olam ma'no bera oladigan lirik o'ziga xos xususiyat egasi, o'ziga xosliligi va so'zlarga e'tiborchanligi so'zga chechanligi shoir yozgan sherkardan olingan misollar orqali konkretlashgan. Shu jumladan shoir A.S.Pushkin, M.Y.Lermantovning ham asarlarida ham mohirona so'z boyligi bilan tarjima qilingan.*

Kalit so'zlar: yozuvchining dunyo qarashi, tasirchanlik, individuallik, yozuvchining uslubi, qalb kechinmlari bilan tabiatni uyg'unlashtirishi lirik dunyo vakili.

Lirik she'riyat shoir qalbining kundaligidir. To'g'ri, lirik she'riyatning bu qoidasiga hamma shoirlar ham rioya qilavermaydilar. Lirik she'riyat shoir qalbining kundaligi bo'lishi uchun shoirda lirik istedoddan tashqari, samimiylig, o'z ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni, ruhiy hayotining to'lqinli holatini haqqoniy aks ettirish, tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan voqealarni o'z yuragidan o'tkazish madaniyati bo'lishi darkor.

Mirtemir ayniqsa urishdan keyingi davrlarda lirik kechinmalar tasviriga katta e'tibor berib ajoyib lirik durdonalar yaratdi. Mirtemirning she'rlarida ham muhabbat jo'sh urgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mirtemirning lirkasida ham mehr-mahabbat mavzusiga bag'ishlangan she'rlarining aksariyatida xuddi mumtoz she'riyatdagi kabi umumlashgan, an'anaviy yanada aniqroq aytsak kitobiy yor obrazi tasvirlanadi. Mirtemirning muhabbatga atalgan 1960 – yilda iyul oyida Qirg'izistonda yozgan she'riga nazar soladigan bo'lsak

"Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman"

satrlari bilan boshlanuvchi bu she'r shoirning xotini Yaqinoya ya'ni turkistonliklar tili bilan aytganda, To'rash kelin oyiga bag'ishlangan.

Hozir ko'rganimizdek she'rning asosiy qismi yetti hijoli satrlardan tashkil topgan.

Bu satrlardan keyin fikr va tuyg'u to'lqini bunday mayjlanib ketadi;

*Charx urib, bo‘z to ‘rg‘ayday bo‘zlashim bor boshingda
 Ey, sochlaring to ‘lqini tun singari sim siyoh,
 Xol kabi paydo bo‘lgum yonog‘ing yo qoshingda,
 Ey, izlaring g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo...*

Yorni ulug‘lovchi yetti hijoli yengil va jo‘shqin satrlardan keyin muhabbat tuyg‘ularining bunday po‘rtanasi she’riy oqimni talqinlashtirib yuboradi. Bu hol she’riy yoki lirik qahramon qalbidagi tuyg‘ularni yanada baland pardada ifodalash imkonini beradi “Charx urib, bo‘z to‘rg‘ayday bo‘zlashim bor boshingda “satridagi b va z alliteratsiyalari xuddi lirik qahramonning bo‘zlayotgan holatiga jo‘rlik qilayotgandek tuyuladi. Keyingi “Ey, izlaring g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo ...”

Bu satrlarda shoir yorni yuqori darajada ulug‘labgina qolmay, u o‘zining va lirik qahramonning harakterini yani yorning qadriga yetkuvchi, uni ilohlashtira biluvchi inson, yuksak ma’naviyat olami sohibi haqiqiy istedod egasi sifatida namoyish eta oladi.

Biz she’rni o‘qir ekanmiz bu she’rda yor va lirik qahramon obrazlari bir- biridan farqlanmay yonma-yon gavdalanishni davom etadi. Agar yor lirik qahramon yoki o‘zining yorga munosabatini munavvar qirralarini namoyish etsa va to bora yuksilib borsa lirik qahramon yorga bo‘lgan o‘ta madaniy munosabati bilan bizning qalbimizda chuqur hurmat tuyg‘usini uyg‘ota oladi. Bir so‘z bilan aytganda Mirtemir she’rlarida, lirkasida hoyot, tabiat, sevgi, muhabbat jo‘sh urgan deya olamiz. Shoirning aksariyat she’rlari tabiat haqida bo‘lib insonlar qalbida cheksiz muhabbat uyg‘ota oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mirtemir she’rlarida nafaqat mehir - muhabbat balki tabiatni ham yurtga muhabbatni ham tasvirlab bera oladigan harakter egasi desak adashmagan bo‘lamiz. Mirtemir xalqning hayotiga zamonaviy o‘zbek sheriyatining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ardoqli adib. Mirtemir nafaqat she’rlar asarlar yozdi balki bizning mumtoz adabiyotimizga ham o‘z hissasini qo‘shgan mumtoz adabiyotimizning barhayot an’analarini xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rganib o‘zlashtirib o‘z she’rlarida ularni ijodiy davom ettirdi , hozirgi o‘zbek adabiyotini boyitdi.

Mirtemirning she’rlarida har doim tuyg‘u hissiyot bo‘rtib turadi. U gohida tarix saxifalarini varoqlab g‘amga botsa, gohida tabiatning go‘zalligini ko‘rib ilhom jo‘sh uradi. Gohida o‘z zamonasining mard, tanti insonlari bilan muloqotlari ijodida ko‘p uchraydigan mavzular nima haqida so‘ralsa yurtga tabiatga oshiqlik, bolalik hotiralariga sadoqat, o‘z xalqidan faxrlanish, uni chin dildan sevib ardoqlash deb atash mumkin. Mirtemir she’rlarida ko‘p hollarda shu yuqorida keltirilgan turlarga mavzularga xos she’rlar mavjud. Uning she’rlarining o‘zida tabiat go‘zalligi, his

tuyg‘u, xotiralar va yana hayotga bo‘lgan muhabbat ifodalanganilagini ko‘rishimiz mumkin.

Shoir ishq va muhabbatga eng asosiysi tabiat kuychisi kabi ko‘plab she’rlar yozgan nafaqat tabiat, muhabbat haqida balki sherlari orasida hazilomuz va ayni damda ibratli to‘rtlikalari ham mayjud.

*Chol dehqonda uch o‘g‘il
Kattasi o‘ktam marg‘ul,
O‘rtanchasi bunday roq
Kenja o‘g‘li g‘irt ahmoq.*

Shoir o‘z shogirdlariga shunday uslubdagi she’rlari bilan ham hazilomuz tanbehtar bergan shundan ko‘rishimiz mumkinki shoirning yozgan she’rlarida ma’nolar xazinasi jam bo‘lgan.

Mirtemirning boshiga kulfat tushganda ham yosh shoir o‘zining ijodini davom ettirdi o‘zining boshidan kechirgan og‘ir damlarida ham taskinni o‘zining qalamidan oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoир boshidan kechirgan og‘ir kunlardan keyin shoir “Majnuntol tagida o‘tqazing meni”, “Men uchun yig‘lasin men yig‘lab bo‘ldim” deya yangragan nolasi ham dard- u istiroblarning hosilasi edi.

*Majnuntol tagida o‘tqazing meni
Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim ,
Majnuntol tagida o‘tqazing meni,
Men uchun yig‘lasin men yig‘lab bo‘ldim*

Shoir bu satrlarida ham ko‘rishimiz mumkunki, o‘ziga hos tabiat sohibi ekanligini. Bir sherning o‘zida ham tabiat go‘zalligi ham iftixor tuyg‘usi ham xotiralar va yana hayotga muhabbat kabi tushunchalarning ifodalinishini ko‘rish mumkin.

*Roziman, roziman o‘la - o‘zguncha
Xalqim deb o‘ldim.
Xalqim nima bo‘lsa men o‘sha bo‘ldim,
Yuragim bo‘g‘ilma o‘rtanma buncha.*

Hassos bu jumalalarda ham o‘zining mohirona qobilyati orqali lirikaning yanada ma’nodorligini oshirgan. Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat va cheksiz hurmatini o‘z yurtiga bo‘lgan sevgisini she’rlarida mujassamlashtirgan.

*O‘lan avjlarida gul ochdi dasht,
O‘lan avjlarida zamon uyg‘onur.
O‘lan avjlarida dunyo dunyo g‘asht,
O‘lan avjlarida olam to‘lg‘onur.*

Qalami o‘tkir nosir ning bu she’rida ham tabiat tasvirlangan. Shoир bu sherida nafaqat tabiat balki dard, alam, izardibni avjlanayotgani haqida tasvirlagan.

Shoir yozuvchi Mirtemir o‘xining she’rlari nafaqat asarlari va hayoti bilan ham kelajak avlodga o‘rnak bo‘la oladi.

Mirtemir ijodda ham adabiy ta’sir va tarjima sohasida barcha adabiyot ahliga ibrat bo‘ladigan hayot yo‘lini bosib o‘tdi shoirning badiiy me’rosi haqida to‘xtalar ekanmiz, Mirtemirning ijodiga xos bo‘lgan hech qachon eskirmaydigan, dolzarblik xususiyatini yo‘qotmaydigan, amaliy ahamiyatini ham yo‘qotmaydigan mavzularda o‘z ijodini davom ettiradi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Naim Karimov .” Mirtemir haqidagi qarashlari “Toshkent - 2014 – y
2. Mirvaliyev. S “ O‘zbek adiblari. Toshkent - 2000 – y
3. Karimov N va boshqalar. 20 asr o‘zbek adabiyoti Toshkent – 1999 – y
4. Azizov Q . Mirtemir . Toshkent. G‘fur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1969 – y
5. Hilolov T. Mirtemir mahorati .Toshkent . G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1980 – y
6. G‘afurov .I. Tabiyat kuychisi Toshkent . G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1970 – y
7. Shokirova . R . O‘zbek adiblari Toshkent . G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san ‘at nashriyoti 2016 – y